

УДК 616.314-089

UCHINCHI MOLYAR TISHINING OLIB TASHLANISHIDAN KEYINGI ASORATLAR TAHLILI

Zakirov Lochinbek shakirjanovich

Radjapov Temurbek Azatbayevich

Toshkent davlat stomatologiya instituti 1-bosqich magistratura talabalari

Ilmiy rahbar: t.f.d professor Qayum Jaxanovich Suvonov

TDSI Jarroxlik stomatologiyasi va dental implantologiya kafedrasi professori

ANNOTATSIYA

(UZ) Uchinchi molyar (aql tishi) ekstraksiyasidan keyingi asoratlar keng tarqalgan bo'lib, bemorlarning tiklanish jarayoniga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ushbu maqolada uchinchi molyarni olib tashlashdan keyin yuzaga keladigan asosiy asoratlar – alveolit, qon ketish, shish, og'riq va infeksiya kabi muammolar tahlil qilinadi. Shuningdek, operatsiyadan keyingi parvarish va tiklanish jarayonini yengillashtirish uchun tavsiyalar beriladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, jarrohlik texnikasi va bemorning umumiy sog'lig'i asoratlar rivojlanish ehtimolini kamaytirishi mumkin.. Ushbu tadqiqot uchinchi molyar ekstraksiyasidan keyingi parvarish bo'yicha stomatologlar va bemorlar uchun foydali manbaa bo'ladi degan umiddamiz.

***Kalit so'zlar:**uchinchi molyar,aql tishi, ekstraksiya, alveolit, qon ketish, infeksiya, stomatologiya, og'riqni nazorat qilish, jarrohlik asoratlari.*

АННОТАЦИЯ

(RU) Осложнения после удаления третьего моляра (зуба мудрости) широко распространены и могут существенно повлиять на процесс восстановления пациента. В данной статье анализируются основные осложнения, возникающие после удаления третьего моляра, такие как альвеолит, кровотечение, отек, боль и инфекция. Также приведены рекомендации по послеоперационному уходу и облегчению процесса восстановления. Результаты исследования показывают, что хирургическая техника и общее состояние здоровья пациента могут снизить вероятность развития осложнений. Мы надеемся, что это

исследование станет полезным ресурсом для стоматологов и пациентов по уходу после удаления третьего моляра.

Ключевые слова: *третий моляр, зуб мудрости, экстракция, альвеолит, кровотечение, инфекция, стоматология, контроль боли, хирургические осложнения.*

ANNOTATION

(ENG) Complications after third molar (wisdom tooth) extraction are common and can significantly affect the patient's recovery process. This article analyzes the main complications that may arise after third molar removal, including alveolitis, bleeding, swelling, pain, and infection. Additionally, recommendations are provided to facilitate postoperative care and recovery. Research findings indicate that surgical techniques and the patient's overall health can reduce the likelihood of complications. We hope that this study will serve as a valuable resource for dentists and patients regarding post-extraction care for third molars.

Keywords: *third molar, wisdom tooth, extraction, alveolitis, bleeding, infection, dentistry, pain management, surgical complications.*

MAQSAD

Ushbu maqolaning maqsadi uchinchi molyar (aql tishi) ekstraksiyasidan keyingi asoratlarning tahlilini o'tkazish va ularning oldini olish hamda davolash usullarini o'rganish va **2023–2025-yillar** davomida **Xorazm viloyati** Urganch shahridagi "Toshkent shifo" xususiy klinikasidagi davolangan bemorlarda aql tishini olib tashlashdan keyin yuzaga kelgan asoratlarni tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot davomida alveolit, qon ketish, infeksiya kabi asoratlarning sabablari va rivojlanish omillari o'rganiladi. Shuningdek, jarrohlik texnikasi, bemorning umumiy sog'lig'i tiklanish jarayoniga ta'siri baholanadi. Ushbu maqola stomatologlar va bemorlar uchun uchinchi molyar ekstraksiyasidan keyingi parvarish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar berishga qaratilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Uchinchi molyar tishlarning olib tashlanishi og'iz-jag' jarrohligida keng qo'llaniladi. Turli tadqiqotlarga ko'ra, bu jarrohlik amaliyotidan keyin qon ketishi, yallig'lanish, jag' mushaklari kontrakturasi kabi asoratlar kuzatiladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki,

yosh bemorlarda suyak yumshoqroq bo'lishi sababli asoratlarda kamroq uchraydi. Keksalarda esa suyak zichroq bo'lib, ekstraktsiya murakkabroq kechadi.

Bundan tashqari, bemorlarning individual fiziologik xususiyatlari ham katta rol o'ynaydi. Masalan, diabet va gipertoniya kabi umumiy kasalliklari bor bemorlar jarrohlikdan keyin tiklanish jarayonida ko'proq muammolarga duch kelishadi. Shu bois, operatsiyadan oldin har bir bemorni sinchkovlik bilan baholash muhimdir.

Uchinchi molyar tishlarning olib tashlanishi og'iz-jag' jarrohligida keng qo'llaniladi. Peterson va hamkorlari (2019) ushbu operatsiyaning xavfsizligini oshirish uchun to'g'ri diagnostika va rejalashtirish muhimligini ta'kidlagan¹. Chrcanovic (2020) esa uchinchi molyar ekstraktsiyasidan keyingi asoratlarning turlari va ularning oldini olish usullarini keng yoritgan.²

Blondeau va Daniel (2017) o'z tadqiqotlarida yosh bemorlarda suyakning elastikligi yuqori bo'lishi sababli asoratlarda kamroq uchrashini ko'rsatgan.³ Shuningdek, diabet va gipertoniya kabi kasalliklar jarrohlikdan keyingi tiklanish jarayoniga salbiy ta'sir qilishi haqida ham ma'lumot bergan.

Chrcanovic (2020) tomonidan olib borilgan tadqiqotda minimal invaziv usullar va zamonaviy texnologiyalar postoperatsion tiklanish jarayoniga qanday ta'sir qilishi o'rganilgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy yondashuvlar qon ketishi va infeksiya xavfini sezilarli darajada kamaytiradi.

Alveolit nima?

Alveolit – tish chiqarilgandan keyin alveola (tish chuqurchasi) sohasida rivojlanadigan yallig'lanish jarayoni. Bu holat odatda tish olib tashlangandan 2-3 kun o'tib paydo bo'ladi va kuchli og'riq, shish, yallig'lanish bilan namoyon bo'ladi.⁴



¹ Peterson L.J., Ellis E., Hupp J.R. Contemporary Oral and Maxillofacial Surgery. Elsevier, 2019

² Chrcanovic B.R. Complications in Third Molar Surgery. Oral Maxillofac Surg Clin North Am, 2020.

³ Blondeau F., Daniel N.G. Extraction of Impacted Mandibular Third Molars. J Can Dent Assoc, 2007.

⁴ Hupp J.R. Principles of Management of Impacted Teeth. Oral and Maxillofacial Surgery Clinics of North America, 2015.

Alveolit sabablari

- **Qon ivindisining shakllanmasligi yoki buzilishi** – tish sug‘urilgandan keyin chuqurda himoya vazifasini bajaradigan qon ivindisi hosil bo‘lmasa yoki yuvilib ketsa, yallig‘lanish ehtimoli oshadi.
- **Og‘iz gigiyenasiga rioya qilmaslik** – jarohat joyiga bakteriyalar tushishi yallig‘lanishga sabab bo‘lishi mumkin.
- **Infeksiya tushishi** – stomatit, gingivit kabi kasalliklar fonida alveolit rivojlanishi mumkin.
- **Tish sug‘urish jarayonida asoratlar** – tish ildizining sinishi yoki to‘liq olib tashlanmasligi alveolitga sabab bo‘lishi mumkin.

Alveolit alomatlari

- Tish sug‘urilgan joyda 2-3 kundan keyin paydo bo‘ladigan kuchli og‘riq
- Yiringli ajralmalar va og‘izdan yoqimsiz hid
- Tana haroratining ko‘tarilishi
- Shish va limfa tugunlarining kattalashishi
- Jarohat joyining qizg‘ish yoki kulrang tusga kirishi

Alveolitni davolash

- **Stomatolog tekshiruvi** – vrach yiring va o‘lik to‘qimalarni tozalaydi.
- **Antiseptik yuvishlar** – xlorheksidin, furatsillin yoki boshqa antiseptik eritmalar bilan chayish.
- **Og‘riq qoldiruvchi va yallig‘lanishga qarshi dorilar** – ibuprofen, ketorol va boshqalar.
- **Antibiotiklar** – og‘ir hollarda bakterial infeksiya rivojlanishini oldini olish uchun buyuriladi.

Oldini olish choralari

- Tish olinganidan keyin 24 soat davomida og‘izni chayqamaslik
- Issiq ovqat va ichimliklardan tiyilish
- Og‘iz gigiyenasiga qat’iy rioya qilish
- Tamaki mahsulotlaridan voz kechish

Agar tish sug‘urilgandan keyin 2-3 kundan so‘ng og‘riq kuchaysa, shish paydo bo‘lsa va yoqimsiz hid sezilsa, stomatologga murojaat qilish shart!

Tish sug‘urilgandan keyin qon ketishi.

Tish sug‘urilganidan keyin qon ketishi normal holat hisoblanadi, chunki jarohat joyida qon ivindisi hosil bo‘lishi kerak. Bu ivindisi yarani himoya qiladi va uning tez bitishini

ta'minlaydi. Biroq, ba'zan qon uzoq vaqt davom etishi yoki kuchli qon ketishi mumkin.⁵

Qon ketishining sabablari

1. **Qon ivindisining hosil bo'lmashligi** – bemor tez-tez og'izni chayqasa yoki chuqur ichidagi ivindini til yoki barmoq bilan tegizsa, qon ketish davom etishi mumkin.
2. **Yuqori qon bosimi** – gipertoniya bilan og'rigan bemorlarda qon bosimi yuqori bo'lsa, qon ketishi uzoq davom etadi.
3. **Qonning ivish jarayoni buzilishi** – gemofiliya, qonni suyultiruvchi dorilar (aspirin, varfarin) qabul qilish natijasida qon ketishi davom etishi mumkin.
4. **Infeksiya yoki yallig'lanish** – og'iz bo'shlig'ida infeksiya mavjud bo'lsa, yara uzoq bitishi mumkin.
5. **Jismoniy harakat yoki issiq ta'siri** – operatsiyadan keyin og'ir jismoniy ish bajarish yoki issiq ichimliklar ichish qon ketishini kuchaytiradi.
6. **Shikastlanish** – oziq-ovqat yoki til bilan jarohat joyiga tegish natijasida qon qaytadan boshlanishi mumkin.

Qon ketishini to'xtatish usullari

Steril paxta tampon qo'yish – Tish sug'urilgan joyga steril gaz yoki paxta tampon qo'yib, 20-30 daqiqa mahkam tishlab turish kerak.

Bosim bilan siqish – Agar qon ketish davom etsa, tamponni almashtirib, yana mahkam bosib turish tavsiya etiladi.

Sovuq kompress qo'yish – Yana muz yoki sovuq narsa tashqaridan (yanoq sohasiga) qo'yish qon tomirlarini toraytirib, qon ketishini kamaytiradi.

Boshingizni balandroq tutish – Yotish kerak bo'lsa, boshni balandroq qilib qo'yish kerak, chunki pastga egilib yotish qon ketishini kuchaytirishi mumkin.

Og'iz chayqamaslik – Operatsiyadan keyin kamida 24 soat davomida og'izni chayqamaslik kerak, chunki bu qon ivindisini yuvib tashlashi mumkin.

Spirтли ichimlik va issiq ichimliklardan voz kechish – Issiq ichimlik va spirтли ichimlik qon ketishini kuchaytiradi.

Qachon shifokorga murojaat qilish kerak?

- Agar qon 4-5 soatdan ortiq davom etsa va hech qanday usul bilan to'xtamasa.
- Agar qon ketishi bilan birga bosh aylanishi, holsizlik yoki ko'ngil aynishi kuzatilsa.
- Agar tish sug'urilgan joyda kuchli shish va yiringli ajralmalar paydo bo'lsa.

⁵ Coulthard P., Bailey E., Esposito M. *Surgical Techniques for the Removal of Mandibular Wisdom Teeth*. Cochrane Database of Systematic Reviews, 2014.

TADQIQOT MATERIALLARI VA USULLARI

Uchinchi molyar tishlarning olib tashlanishi og‘iz-jag‘ jarrohligi bo‘yicha rejalashtirilgan jarrohlik amaliyotlarining taxminan **90%** ini tashkil etadi. Aql tishini olib tashlash turli asoratlar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Tadqiqot retrospektiv tahlil asosida olib borildi. 2021–2024-yillar davomida 108 nafar bemorda uchinchi molyar tish ekstraksiyasidan keyingi asoratlar qayd etildi. Tadqiqot davomida bemorlarning jinsi, yoshi, tishning joylashuvi va olib tashlash usuli inobatga olindi.

Tadqiqotga kiritish mezonlari:

- Faqat bitta uchinchi molyar tish olib tashlangan bemorlar;
- Operatsiyadan oldin hech qanday infeksiyon kasallik kuzatilmagan bemorlar;
- Antibiotik profilaktikasi qo‘llanilmagan holatlar.

Tadqiqotdan chiqarish mezonlari:

- Bir nechta tishlar bir vaqtda olib tashlangan bemorlar;
- Jiddiy umumiy kasalliklarga ega bemorlar;
- Homilador ayollar.

Asoratlarning uchrash ehtimoli bemorning jinsi, yoshi, olib tashlangan tishning rivojlanish bosqichi va joylashuvi hamda operatsiya turiga bog‘liq ravishda baholandi.

NATIJALAR

Operatsiyadan keyin 16 ta bemorda (15,0%) turli xil asoratlar kuzatildi:

- 9 bemorda atrofdagi to‘qimalarning yallig‘lanishi;
- 4 bemorda jag‘ mushaklari kontrakturasi;
- 1 bemorda gaymor bo‘shlig‘i ochilib qolishi;
- 1 bemorda gematoma;
- 1 bemorda til nervining vaqtinchalik sezgirlik buzilishi (paresteziya).

Ushbu natijalar ko‘rsatadiki, murakkab ekstraksiyalar va pastki jag‘ning uchinchi molyar tishlari olib tashlangan holatlarda asoratlar nisbatan ko‘proq uchraydi. Bundan tashqari, bemorning yoshi yoki jinsi va olib tashlangan tishning rivojlanish bosqichi o‘rtasida statistik jihatdan ahamiyatli bog‘liqlik aniqlanmadi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, uchinchi molyar tish ekstraksiyasidan keyingi eng ko‘p uchraydigan asoratlar yallig‘lanish va trizmus hisoblanadi. Pastki jag‘ning uchinchi molyar tishlari va murakkab ekstraksiyalar yuqori xavf omillari hisoblanadi.

Profilaktik chora-tadbirlar, jumladan, operatsiyadan oldin to'g'ri diagnostika va antibiotik terapiyasi, jarrohlik texnikalarining yaxshilanishi ham asoratlarning kamayishiga yordam beradi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, operatsiyadan keyin bemorlar tomonidan tavsiyalarga rioya qilinishi ham tiklanish jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Peterson L.J., Ellis E., Hupp J.R. Contemporary Oral and Maxillofacial Surgery. Elsevier, 2019.
2. Chrcanovic B.R. Complications in Third Molar Surgery. Oral Maxillofac Surg Clin North Am, 2020.
3. Blondeau F., Daniel N.G. Extraction of Impacted Mandibular Third Molars. J Can Dent Assoc, 2017.
4. Андреищев А.Р. Осложнения прорезывания зубов / – СПб.: СпецЛит, 2007. – С. 115-146.
5. Исомов М.М., Шомуродов К.Э., Ахмадалиев Н.Н. Мониторинг госпитализированных беременных женщин с одонтогенными воспалительными заболеваниями ЧЛЮ за 2017-2019 гг. на базе клиники взрослой хирургической стоматологии ТГСИ //Инновационная стоматология. – 2020. – С. 116-119.
6. Сувонов К.Ж., Рустамова Х.Е Прогнозирование риска возникновения стоматологических заболеваний у беременных / Метод. Рекомендации Ташкент. 2008. - 13 с
7. Собиров Ф.И., Сувонов К.Ж., Саидов Б.О. Ультратовушли суяк жарохлиги Пьезохирургиянинг жарохлик стоиатологияси амалиётида куллаш / Инфекция, иммунитет ва фармакология.-Тошкент. 2019.-№4.-107-1126
8. **Hupp J.R.** *Principles of Management of Impacted Teeth*. Oral and Maxillofacial Surgery Clinics of North America, 2015.
9. Mamatov M.M., Daminov A.N. "Stomatologiya va jarrohlik stomatologiya asoslari" — Toshkent: O'zbekiston Tibbiyot nashriyoti, 2020. — 312 b.**Coulthard P., Bailey E., Esposito M.** *Surgical Techniques for the Removal of Mandibular Wisdom Teeth*. Cochrane Database of Systematic Reviews, 2014.
10. **Kim S.G., Park S.S.** *Complications of Wisdom Tooth Surgery and Their Prevention*. Journal of the Korean Association of Oral and Maxillofacial Surgeons, 2018.

11. **Ghaeminia H., Perry J., Nienhuijs M.E.** *Position of Impacted Third Molars and Their Relationship with Complications: A Systematic Review.* International Journal of Oral and Maxillofacial Surgery, 2021.

Mualliflar haqida ma'lumot:

Zakirov Lochinbek Shakirjanovich - "Kamoliddin dental clinic" stomatolog shifokori, TDSI 1-bosqich magistratura talabasi, +998912795456; zakirov.dds@gmail.com

Radjapov Temurbek Azatbayevich - "777LOR" shifokor-stomatologi, TDSI 1-bosqich magistratura talabasi, +998907389969; tim.jordan.9.23@gmail.com

Сведения об авторах :

Закиров Лочинбек Шакиржанович- Врач-стоматолог, “Kamoliddin dental clinic”, студент магистратуры 1 курса ТГСИ, +998912795456; zakirov.dds@gmail.com

Раджапов Темурбек Азатбаевич - Врач-стоматолог, “777LOR”, студент магистратуры 1 курса ТГСИ, +998907389969; tim.jordan.9.23@gmail.com

Authors' information :

Lochinbek Shakirzhanovich Zakirov- Dentist, "Kamoliddin dental clinic", Master's student of the 1st year of TSDI, +998912795456; zakirov.dds@gmail.com

Radjapov Temurbek Azatbayevich - Dentist, "777LOR", Master's student of the 1st year of TSDI, +998907389969; tim.jordan.9.23@gmail.com